

YURIDIK FAOLIYATDA ONLINE LEARNING USULLARINING QO‘LLANILISHI

Nigora Basirova,

basirovanigora@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sulov fakulteti 1-kurs B-potok 1-guruh talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda yuridik faoliyatda onlayn learning usullarining qo‘llanilishi va ulardan foydalanish bosqichlari haqida ma‘lumot beriladi. Onlayn o‘rganish shakllarining Legal tech vositasidagi ahamiyatini to‘laqonli ochib beradi. Bunday shakldagi ta‘lim tizimining O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida, yuridik faoliyatda va xalqaro qonunchilikda qo‘llanilishi to‘g‘risida, shuningdek uning kelajakdagi tendensiyalari qanchalik yuridik amaliyotda sezirarli darajada o‘zgarishi haqidagi ma‘lumotlar keltirilib o‘tiladi. Yuridik sohada rivojlanayotgan mamlakatlarning tadqiqotchilari o‘tkazgan tadqiqotlar va ularning natijalari bilan birgalikda yuridik faoliyatda onlayn learning usullarining qo‘llanilishiga doir fikr-mulohazalari bayon etiladi. Shu bilan bir qatorda ushbu sohani rivojlantirishga oid muallifning shaxsiy takliflari ham keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** onlayn learning usullari, bosqichlari, Legal tech, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, tendensiyalar, yuridik faoliyat, tadqiqotlar, shaxsiy takliflar.*

ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ ОНЛАЙН-ОБУЧЕНИЯ В ЮРИДИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Нигора Басирова,

basirovanigora@gmail.com

Ташкентский государственный юридический университет

Студент факультета уголовного правосудия, 1 курс, Б-поток, 1 группа

Аннотация: *В данном исследовании представлена информация об использовании методов онлайн-обучения в юридической деятельности и этапах их использования. Он в полной мере раскрывает важность форм онлайн-обучения в сфере юридических технологий. Приведена информация о применении данной формы системы образования в законодательстве Республики Узбекистан, юридической деятельности и международном законодательстве, а также о том, как ее будущие тенденции существенно изменятся в юридической практике. Вместе с исследованиями, проведенными исследователями развивающихся стран в правовой сфере, и их результатами представлены мнения об использовании методов онлайн-обучения в юридической деятельности. Кроме того, представлены личные предложения автора по развитию данного направления.*

Ключевые слова: *методы онлайн-обучения, этапы, Юридические технологии, законодательство Республики Узбекистан, тенденции, юридическая деятельность, исследования, личные предложения.*

APPLICATION OF ONLINE LEARNING METHODS IN LEGAL ACTIVITIES

Nigora Basirova,

[*basirovanigora@gmail.com*](mailto:basirovanigora@gmail.com)

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sulov fakulteti 1-kurs B-potok 1-guruh talabasi

Abstract: *This study provides information on the use of online learning methods in legal activities and the stages of their use. It fully reveals the importance of online learning forms in the field of legal technology. Information is provided on the application of this form of the education system in the legislation of the Republic of Uzbekistan, legal activity and international*

legislation, as well as how its future trends will change significantly in legal practice. Together with studies conducted by researchers in developing countries in the legal field and their results, opinions on the use of online learning methods in legal activities are presented. In addition, the author's personal proposals for the development of this area are presented.

Keywords: *Key words: online learning methods, stages, legal technologies, legislation of the Republic of Uzbekistan, trends, legal activity, research, personal suggestions.*

KIRISH

XXI asr internet texnologiyalari va rivojlanish, yangi taraqqiyot bosqichiga o'tish davri. Tobora rivojlanib borayotgan bu davrda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar hech bir sohani chetlab o'tmadi, xuddi shuningdek yuridik sohada ham bir qancha yangilanishlar va o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yuridik faoliyatda ayniqsa, ta'lim olishning yangichi usuli, ya'ni onlayn learning usullarining qo'llanilishi fanning katta yutug'i desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shu o'rinda bizda bevosita savol paydo bo'ladi: **Online learning o'zi nima va u nimaga xizmat qiladi?**

Online learning – bu internet texnologiyalar va mobil ilovalardan, shuningdek, kompyuter uskunalari va boshqa tarmoqlardan foydalangan holda ta'lim olish, o'rganish, tahlil qilishning bir turidir. Bu odatdagi an'anaviy sinf xonalarida ta'lim olishdan farq qilib, o'rganuvchilarga bevosita masofadan turib ta'lim olish imkoniyatini beradi, shuningdek o'quvchilarga vaqti va joyiga qarab turli xil kurslar va dasturlarni o'rganish uchun ham moslashtirilgan tizimga ega. Online learning o'z ichiga elektron darsliklar, ta'lim xizmatlari hamda texnologiyalarni qamrab oladi. Darhaqiqat, onlayn ta'lim ta'limda kompyuterlardan foydalanishdan boshlangan. Dastlab kompyuter yordamida o'qitish an'anaviy, keyinchalik klassik amaliy mashg'ulotga aylandi. Ushbu ta'lim olish shakli 2000-yillarning boshida internetning ko'tarilishi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan xalq orasida ommalashdi.

METODLAR

Online learningning qanday usullari mavjud?

Onlayn learning ning ma'nosi turlarga ko'ra bir-biridan farq qilishi mumkin va bu to'liq o'rganuvchining qiziqishiga bog'liq ravishda tanlanadi.

Asixron onlayn o'rganish- bu o'rganuvchilar o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda o'quv materiallari, modular, baholash tizimi bilan shug'ullanishlari mumkin bo'lgan mustaqil tadqiq qilishni ifodalaydi. Ushbu tizimdan o'quvchilar o'zlari xoxlagan tartibda video darslar va vebinarlar, muammoli vaziyatlar, case studylar, onlayn kutubxonalar, virtual laboratoriyalar va virtual sud jarayonlari, xalqaro huquqiy onlayn forumlar kabi turlaridan foydalangan holda mustaqil ravishda ta'lim olsa bo'ladi.

Sinxron onlayn ta'lim olish- bu real vaqtda bo'lib o'tadigan dars jarayonlariga qatnashish yoki o'qitishning bir turi, misol uchun, chat xonalari. Bunda o'rganuvchilar zudlik bilan o'z fikr-mulohazalarini taqdim etishlari talab etiladi va faol munozalar o'tkazish imkonini beradi. Sinxron o'qitish o'quvchilarni interfaol tadbirlar, guruh taqdimotlari va loyihalari orqali jalb etiladi. Bu o'quvchilarga tengdosharlari va o'qituvchilar bilan bevosita aloqa o'rnatish, muloqot qilishga ko'maklashadi.

- Video darslar yoki vebinarlarda ishtirok etish orqali har bir o'rganuvchi yuqori sifatga ega bo'lgan va professional o'qituvchilar tomonidan tayyorangan ma'ruzalarni eshitishlari, ulardan bepul foydali maslahatlar olishlari mumkin bo'ladi. Animatsiyalar va yorqin dizaynga ega grafik bilan boyitilgan mavzulardan foydalanish imkoniyatlari ham mavjud.

- Muammoli vaziyatlar va case studylar har bir yuridik soha vakillari uchun shuningdek, umuman olganda mustaqil qaror qabul qobiliyatini oshirmoqchi bo'lgan toifalar uchun aynan foydali hamda samarali o'qitish tizimi. Bunda interaktiv formatda real huquqiy vaziyatlar taqdim etiladi va o'rganuvchilar mustaqil qaror qabul qilishlari va qabul qilgan qarorlarining huquqiy oqibatlarini ko'rishi mumkin bo'ladi.

- Onlayn kutubxonalar va elektron resurs markazlari talabalarga tayyor axborotlar, darsliklar, maqolalar va huquqiy adabiyotlarni elektron tarzda taqdim etadi, keng ko‘lamga ega bo‘lgan podkastlar ham taqdim etiladi.
- Virtual laboratoriyalar sud ekspertizasi ma’lumotlari, kriminalistik tekshiruvlar o‘tkazish bo‘yicha virtual mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Shuningdek, eksperiment paytida hodisalarning holatini qayta tiklash bo‘yicha ham virtual mashg‘ulotlar tashkillashtiriladi.
- Virtual sud jarayonlarida virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalari orqali sud zalida sudda ishtirok etish, ish yuritish va jarayonni kuzatish imkoniyatini beradi, shuningdek, ma’lumotlarni yig‘ish, to‘plash, dalilarni tekshirish mumkin.

Bu interaktiv usullar o‘rganuvchilarga nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lish, balki ularning amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Ular yuridik sohaga oid bilimlarni yanada tez o‘zlashtirish, sohani qiziqarli qilishga mo‘ljallangan.

Yuridik faoliyatda online learning usullari qo‘llanilishining ba’zi afzalliklari va kamchiliklari ham mavjud.

Afzalliklari:

Moslashuvchanlik. O‘rganuvchilar o‘zlariga qulay bo‘lgan vaqtda va istalgan joyda o‘rganishlari mumkin bo‘ladi.

Keng qamrovlik. Geografik joylashuvidan qa’iy nazar, keng auditoriya yuridik sohaga oid ta’lim olishlari mumkin, bunda yoshi jihatdan guruhlariga ajratilmaydi.

Xalqaro darajadagi aloqalar. Dunyo bo‘yicha turli millat talabalari va mutaxassislari bilan muloqot qilish barobarida fikr almashish imkonini beradi

Video darslar va interaktiv manbalarga boy ekanligi. Yuqorida aytib o‘tilganidek,

Video darslar va interaktiv resurslar orqali o‘rganish yanada qiziqarli va tushunarli bo‘ladi, bunda o‘quvchining yuridik salohiyati yanada ortadi.

Arzonroq. Onlayn kurslar ko‘pincha an‘anaviy kurslarga qaraganda arzonroq va hatto, tekin ham bo‘lishi mumkin.

Yuridik faoliyatda online learning usullarini qo‘llanilishining afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud.

Kamchiliklari:

Yetarlicha motivatsiyaga ega emas. Ta‘lim olish asosan onlayn shaklda amalga oshirilganligi uchun mustaqil o‘z ustida ishlash salohiyatiga ega bo‘lmagan o‘rganuvchilar uchun qiyinchilik holatlari kuzatilishi mumkin. Chunki bunda hech kim sizning ta‘lim olishingiz ustidan nazorat qilmaydi va siz o‘zingiz mustaqil o‘zlashtirishingiz kerak bo‘ladi.

Internet bilan bog‘liq muammolar. Internetning uzulib qolishi va texnologiya bilan bog‘liq muammolar ta‘lim olishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Muloqotdagi uzilishlar. Onlayn o‘rganishda odamlar bilan bevosita muloqot qilish jarayoni bo‘lmaydi. Shuning uchun ijtimoiy aloqada uzilishlar kuzatilishi bu tabiiy hol.

Amaliy ko‘nikmalarning rivojlanmasligi. Online o‘qish, asosan, nazariy bilimlarni o‘rganishga yo‘naltirilganligi sababli, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga unchalik e‘tibor qaratilmaydi.

Online learning usullarining O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida qo‘llanilishi. Online darslar yoki kurslar orqali Qonunchilikda bo‘layotgan barcha o‘zgartirish va yangilanishlarni o‘zganish funksiyasini bajaradi. Onlayn platformalar yoki veb-sahifalar orqali yuristlar huquqiy hujjatlar tuzishlari, sud qarorlari, shartnomalar bilan tanishib chiqishlari, ariza, taklif, shikoyatlar yoki boshqa turdagi murojaatlar uchun tayyor shablanlardan foydalanishlari mumkin bo‘ladi. Yuridik fakultetlar va akademik litseylar, shuningdek yuridik sohada ta‘lim olishni istaydiganlar uchun masofadan turib ta‘lim olish imkonini beradi. Xalqaro qonunchilikni o‘rganish va xalqaro miqyosdagi tashkilotlar yuristkonsultantlari bilan fikr almashishlari ham mumkin bo‘ladi. Bu sohani rivojlantirish maqsadida davlatimizda bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda, bir qator bajarilishi shart bo‘lgan farmon, qarorlar qabul

qilinmoqda. Xususan, 2020-yil 29-aprelda qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5987-son** Farmoni ham sohaga berilayotgan e’tiborning yaqqol isbotidir.

Online learning usullarining xalqaro qonunchilikda qo‘llanilishi. Xalqaro qonunchilikni o‘rganish, huquqshunoslik bo‘yicha onlayn kurslarda ishtirok etib rivojlanayotgan mamlakatlarning qonunchilik tizimini o‘rganilishi belgilangan. Onlayn hujjat almashinuvi yoki fikr almashinuvi imkoniyati mavjud, bunda xalqaro hamkorlikda elektron imzo va elektron pochta xizmatlaridan bepul foydalanish mumkin. Onlayn seminar treninglar tashkil etish sohani o‘rganishda yanada samaraliroq natijaga erishish mumkinligini ko‘rsatgan. Shuningdek, munozara platformalaridan foydalanib xalqaro shartnomalar tuzish va hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yiladi. Xalqaro mojarolarni hal qilish vositasida veb sudlarni tashkil etish va ularda ishtirok etish huquqi berilgan. Bu borada AQSH, Yevropa Ittifoqi va Osiya mamlakatlari jumladan, Janubiy Koreya singapurning “Smart Education” dasturlari ishlab chiqilgan. AQSHning “Distance education accreditation” (masofaviy ta’lim akkreditatsiyasi) mavjud bo‘lib bu zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan ta’lim muassasi yoki dasturning tasdiqlangan standartlarga muvofiq ekanligi tekshirish, ta’lim sifatini nazorat qilish va baholashdan iborat. Ushbu ta’lim tizimi murakkab va ko‘pqirrali jarayon bo‘lib, u7 doimiy rivojlanish, o‘zgarish va takomillashtirishni talab etadi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, bu sohadagi xalqaro tajribalar va standartlarni o‘rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik faoliyatda onlayn learning usullarining qo‘llanilishiga oid ir qancha olimlarning turli xildagi fikr-mulohazalari ham mavjud. Masalan Amerika olimlarining fikrlarini oladigan bo‘lsak, onlayn o‘rganish tizimini 2 xil ya’ni, ijobiy va salbiy jihatlarga ajratishgan.

NATIJALAR

Ijobiy tomonlari. Olimlar kirish imkoniyatlarining kengaytirilganligini va bu orqali online learning jamiyatning turli xil a’zolariga jumladan, qishloq

sharoitida yashovchi shaxslar, imkoniyati cheklangan shaxslar va ishlayotganlarga yuqori sifatga ega bo'lgan yuridik ta'lim olish imkoniyati kafolatlaydi deb hisoblaydilar.

Yana bir ijobiy jihati shundaki, o'quv resurslari va darsliklar tez-tez yangilanib turishi va modernizatsiya qilinishi o'quvchilarga o'rganishni yanada qiziqarli va dinamik, interaktiv qilish imkonini beradi.

Salbiy tomonlari. Ko'pchilik talabalar internetga kirish imkoniyati, undan erkin foydalanish, saqlash yoki xabarlarni uzatishda muammoga duch kelishi mumkin yoki texnik ko'nikmalarga ega bo'lmasa, onlayn learning dan foydala olmasligi mumkin deb hisoblaydilar.

Ikkinchidan, ta'lim olish sifatini nazorat qilish qiyinroq bo'lishi mumkin, odatda bunday platformalarni uchratish kamdan-kam holatlarda uchraydi, shuning uchun o'rganuvchilar o'zlarining ta'lim olishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari kerak bo'ladi.

“Online o'qish-bu yuridik kasbni demokratlashtirish va uni har kimga ochiq qilish uchun ajoyib imkoniyatdir, biroq amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor berish va texnologiyaga teng kirish imkoniyatini ta'minlash muhimdir.”

“Onlayn platformlar orqali yuridik sohaga oid zamonaviy axborotlarni tarqatish va o'quv materiallari hamda resurslarni yangilash juda muhimdir.” Richard Posner.

“O'qishning kombinatsiyalashgan shakli, ya'ni onlayn o'qish bilan amaliy mashg'ulotlarni birlashtirish, o'quvchilarga na zarur nazariy bilimlarni, na amaliy ko'nikmalarni olishga imkon beradi.” Ronald Dworkin.

Ushbu o'qitish tizimi yuridik sohada ayniqsa, kimlar uchun foydali bo'lishi mumkin?

- O'rganishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bo'lajak yuristlar va qonunchilikdagi o'zgarishlarga qiziqish bildiradigan toifalar, shuningdek, aholining boshqa toifalari.

- Bir vaqtning o'zida ham ishlab, ham o'qish bilan shug'ullanuvchi shaxslar, bunda ular uchun maksimal darajada qulaylik yaratish maqsadida kurslar ishlab chiqilgan hamda ular kunning istalgan qismida ishdan bo'sh vaqtda, ta'lim olishlari mumkin bo'ladi.

- Imkoniyati cheklangan ammo, yuristik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan imkoniyati cheklangan shaxslar. Aytaylik, agarda oliy ma'lumotli, bilimga ega huquqshunos bo'lsa-da biroq, yurishga imkoniyati bo'lmasa, demak bu shaxs bemalol, uyda o'tirgan holda birorta internet tarmog'ida o'zi uchun veb-sahifa ochishi va o'z faoliyatini davom ettirishi mumkin bo'ladi. Shuningdek pulli huquqiy maslahatlar berishi ham mumkin bu orqali ham daromad manbayiga hamda onlayn ishga ega bo'ladi.

- Yuridik faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan ammo tashqi ta'sirni istisno qiluvchi shaxslar uchun, ya'ni ma'lum bir tashkilotda yoki kabinetda o'tirib ishlashni xoxlamaydigan shaxslar uchun.

- Sud jarayonlari, eksperimental holatlarda ishtirok etishni xoxlovchilar shaxslar uchun, asosan bu virtual sud jarayonlari orqali amalga oshiriladi va har bir talabaga rol bo'lib beriladi: advokat, sudya, prokuror tarzida.

Bundan tashqari endilikda yuridik kas-hunar idoralari endi huquqshunoslik bitiruvchilarining texnologiya bilan biroz amaliy ko'nikmaga ega bo'lishiga juda qiziqish bildirishmoqda va huquqiy tadqiqotlar o'tkazish, yuridik xizmatlarni bozorga chiqarish va mijozlar ehtiyojlarini samarali boshqarish uchun innavatsion amaliyotlarni rivojlantirish uchun texnologiyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Misol uchun, ko'plab talabalar ish va oilaviy majburiyatga ega yoki universitetdanbiroz masofada yashaydilarva texnologiya ya'ni online learning usullarini qo'llash orqali o'qish ular uchun ayni muddao. Biroq, universitetlar akademiklar uchun onlayn o'qitish metodologiyasini qo'llashning asosiy omili hisoblanadi. Universitetlarning ushbu tashabbusni rag'batlantirishiga bir qancha sabablar bor. Universitetlar raqamli muhitda muvaffaqiyat qozonadigan, o'zgarishlarga moslasha oladigan va mijozlar hamda jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muloqot va hamkorlik ko'nikmalari kabi

maxsus skillardan foydalanadigan ishga tayyor yuridik bitiruvchilarni tayyorlash uchun katta bosim va mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda faoliyatini olib borishadi. An'anaviy va masofaviy ta'lim muhitida yuridik fakultet talabalarining munosabatlari, ustuvorliklari va ta'li natijalariga oid ma'lumotlarni olish, taqqoslash va ulardan foydalanish maqsadida eksperimental tajribalar ham o'tkazilgan. Taqdqiqotning asosiy natijasi farqli o'laroq, umuman universitet ta'lim sifatini, xususan, huquqshunos talabalarni tayyorlash sifatini oshiradigan ommaviy, ochiq va jonli online learning usullarini qo'llash orqali masofaviy ta'lim va o'qitish modelini ishlab chiqishdan iborat bo'lgan. Boshqa davlatning tajribalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, onlayn o'rganish an'anaviy yuridik ta'limning qat'iyligi va sifatini buzishi mumkin, bu yangi advokatlar, kadrlar va ular xizmat qilayotgan advokatlar foydasiz bo'lishi mumkin deb hisoblaydilar To'g'ri, bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar natijasi bir-biridan mutlaqo farq qilishi mumkin yoki bildirilayotgan fikrlar har o'z haqiqatini topayotgan bo'lishi mumkin, ammo menimcha onlayn learning usullaridan foydalangan holda yuridik sohada bilim olish texnikasini ishlab chiqish fanning katta yutug'i bo'ladi deb o'ylayman.

Yana bir muhim savol paydo bo'ladi- onlayn ta'lim huquq amaliyotiga qanday ta'sir qilishi mumkin. Onlayn learning usullarini qo'llash yuridik kasbning mijozlar ehtiyojini qondirish qobiliyatini qay tariqa ta'sir qilishi mumkin?

Bu hozirgi davrning mutlaqo dolzarb savoli deb hisoblash mumkin. Chunki hozirgi kunda internet texnologiyalarining rivojlanib borishi har bir sohaga o'ziga xos muammolar bilan kirib kelmoqda shu o'rinda huquqshunoslik sohasida ham. Mijozlar ehtiyojini qondirish qobiliyatiga ta'sir etish ma'lum bir vositalar orqali amalga oshiriladi. Bunda birinchi navbatda mijozlar ehtiyojlari va qiziqishlari o'rganiladi va ularga o'zlari uchun muqobil bo'lgan xizmat turini taqdim etish choralari ko'riladi. Misol uchun bir mijozning ehtiyojini- sudga murojaat qilish uchun ariza yozib berishni so'rash deb olsak, ushbu mijoz qanday turdagi ariza yozib berish kerakligi va sudga murojaat qilish sabablari ko'rib

chiqiladi, mijozning shaxsiy ma'lumotlari olinadi va unga kerak bo'lgan xizmat turi ko'rsatiladi. Lekin shaxsiy fikrlaringa ko'ra onlayn amaliyotni amalga oshirish ko'proq samarasiz bo'lishi mumkin inson omilining mavjud bo'lmaganligi sababli.

MUHOKAMA

Onlayn learning usullarining kelajakdagi tendensiyalari:

1. Sun'iy intellekt yordamida individual o'rganish tizimi rivojlanadi.
2. Yaqin kelajakda yanada moslashuvchan va samarali o'rganish uchun onlayn platformalar, veb-saytlar, sun'iy intellekt texnologiyalari va interaktiv texnologiyalardan foydalanishning foydalanish imkoniyatlarining ortishi mumkin.
3. Smart o'quv muhitini yaratish uchun kengaytirilgan reallik va haqiqiy reallik muhiti kabi yordamchilar kabi murakkab texnologiyalarni ishlab chiqish.
4. Butun dunyo miqyosidagi huquqshunoslar bilan aloqa o'rnatish.
5. Virtual sud jarayonlari va laboratoriyalarni yanada takomillashtirish.
6. Uzluksiz ta'lim ya'ni yuristlar uchun onlayn malaka oshirish imkoniyatlarining ortishi yuz berishi mumkin.
7. Yangi qonunlar va qonunchilikdagi o'zgarishlarni tezlikda o'rganish va oson o'rganish. Hozirgi kunda O'zbekiston shaoritida yagona huquqiy qonunchilik hujjatlari bo'yicha bitta platforma mavjud va u ham bo'lsa lex.uz sayti. Ammo ushbu saytdan qonun hujjatlarini topishda agar qonunning nomini to'liq bilmasa, talabalar ham oddiy odamlar ham anchagina qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuning murakkab tizimga ega bo'lmagan va huquqiy hujjatlarni topishda yoki ulardan foydalanish jarayonida muammolarga duch kelmaydigan sayt ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.
8. Blockchain texnologiyasining qo'llanishi. Ta'lim sertifikatlarini ishonchli tarzda saqlash va tasdiqlash uchun.

Shuningdek, ushbu mavzu bo'yicha xalqaro amaliyotga murojaat qiladigan bo'lsak, bir necha xorijiy mamlakatlar tadqiqotlari va olimlarning

muhokamalari shuni ko'rsatadiki, yaqin bir necha yil ichida an'anaviy jismoniy huquq maktablari darslari virtual huquq maktablari sinflariga almashtiriladi. Mamlakat bo'ylab minglab talabalar bir vaqtning o'zida internet orqali ma'ruzalar va multimedia taqdimotlarini ko'rishadi va ma'ruza oxirida yoki onlayn muhokama forumlari orqali ma'ruzachilarga savollar berish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. Boshqa bir mamlakat olimlarining muhokamalariga ko'ra, kelgusi o'n yilliklarda dunyoning katta qismini o'zgartirgan raqamli texnologiyalar huquqiy ta'limni ham o'zgartiradi. Kurs materiallarini raqamli ishlab chiqarish va tarqatish ham mazmunga ham materiallardan sinfda va kutubxonada foydalanish usuliga kuchli ta'sir qiladi deya ta'kidlashadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, internet texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ko'plab sohalarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi, shu o'rinda yuridik sohada onlayn learning usullari kabi onlayn o'rganish shakllarining yanada takomillashtirilgan turlari ishlab chiladi. Shuningdek, AQSH, Xitoy, Yaponiya kabi va yana 10 dan ortiq rivojlanib borayotgan davlatning yuridik sohaga oid ta'lim tizimini o'rganish va sohaga yangiliklar olib kirish eng asosiy vazifa sifatida fanda qolmoqda. Shu o'rinda yuridik faoliyatda online learning usullarining qo'llanilishiga oid bir qancha takliflarimni bildirib o'tmoqchiman. Birinchidan, real huquqiy holatlar va muammoli vaziyatlarni o'z ichiga olgan bepul platforma yaratish kerak ya'ni hozirgi kunda huquqshunoslik sohasiga oid huquqiy muammolarni o'z ichiga olgan platforma deyarli yo'q va bo'lsa ham pulli asosda foydalanish mumkin. Ikkinchi taklifim, online ta'lim berishning yoki o'rganishning sifatini nazorat qilish tizimini yaratish lozim. Uchinchidan esa case studylar jarayonida bevosita yoki platformalar orqali guruh bo'lib ishlash imkoniyati yaratilishi kerak chunki odatda case studylar individual ishlashga asoslangan bo'ladi va aynan shu sayt yaratilsa, huquqiy ong va huquqing madaniyat ayniqsa, huquqiy savodxonlik darajasining yanada oshishiga turtki bergan bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ronald W Staudt (2013), Chicago-Kent Law Review 88, 687, 2013 “Introduction, Justice, Lawyering and Legal Education in the Digital Age”.
2. Mark Fenwick, 2018 18-21 Lex Research Topics in Corporate “Legal Education in a Digital Age”.
3. David IC Thompson 2020,181,70 Syracuse L. Rev “How online learning can help address three persistent problems in legal education.”
4. Edward Rubin 2014, 499-521 Law & Social Inquiry 39 (2) “The future and legal education: are law schools failing and, if, so, how?”.
5. Ambrogi, R. (2020). 2020 ABA Legal Technology Survey Report. American Bar Association.
6. Westlaw, NexisUni, HeinOnline базаларидаги мақолаларга ҳавола берилиши шарт (бу мавзу бўйича материал жуда кўп халқаро базаларда).